

O'zbekiston

Metama'lumot

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

0. Asoslar

0.1 Huquqiy shartlar

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik (majburiy toifa)

2012 yilda o'zgartirishlar kiritilgan 2002 yil 12 dekabrda «Davlat statistikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq Davlat statistika qo'mitasi mustaqil faoliyat yuritadi, qonun davlat statistika ishlarini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistika organlarining vakolatini belgilaydi va statistik axborotlarning yagona tizimini qo'llab-quvvatlash uchun normativ asos yaratadi.

2017 yilning sentyabrida Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida yangi nizom qabul qilinib, unda ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lishi zarur hisoblangan, Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilish uchun mas'ul Davlat statistika qo'mitasining vakolati, funksiyalari va tuzilmasi belgilangan. Uning funksiyalariga xalqaro standartlarga mos yagona statistik metodologiyani tashkil etish kiradi.

Davlat statistika qo'mitasi statistika ishlarini amalga oshiruvchi boshqa davlat statistika organlari kabi o'z vakolati doirasida davlat statistika hisobotlarini, ma'muriy hisob ma'lumotlarini va davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur boshqa ma'lumotlarni, shuningdek boshqa idoralarning hisobotlariga ilova qilingan tushuntirishlarni so'rash va olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi F-5054-son Farmoyishiga muvofiq mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlari XVFNing MTUT tizimiga mos kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi lozim.

2019 yilning aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4273-sonli qarori qabul qilindi, unga muvofiq Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparatida O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq ishlar uchun mas'ul bo'linma tashkil etildi.

0.1.2 Ma'lumot tuzuvchi idoralar bilan ma'lumot almashish va muvofiqlashtirish (majburiy toifa)

Davlat statistikasi to'g'risidagi qonunning 9 moddasiga muvofiq, davlat statistika organlari Davlat statistika ishlari dasturini bajarishda boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda statistika ishlarini amalga oshiradi. Davlat statistika organlari boshqa davlat organlari va yuridik shaxslarga qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vakolatiga tegishli ayrim harakatlarni amalga oshirishga ruxsat beradi. Boshqa davlat organlari va yuridik shaxslar davlat statistika kuzatuvlarini Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, shuningdek idoraviy statistika kuzatuvlarini vakolatli davlat statistika organi bilan kelishilgan shakllar asosida amalga oshiradi. Idoraviy statistika kuzatuvlari ma'lumotlari vakolatli davlat statistika organiga uning so'roviga asosan taqdim etiladi.

Undan tashqari, Statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi kollegial maslahat organi sifatida, davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi bilan bog'liq masalalarni muvofiqlashtiradi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig'ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig'ilishlarda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo'yicha axborotlari eshitilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

0.1.3 Alohida respondentlar bo'yicha hisobot ma'lumotlarining maxfiyligi (majburiy toifa)

Davlat statistikasi to'g'risidagi qonunning 7 moddasiga muvofiq davlat statistika organlari yakka tartibdagi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta'minlashi shart. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomning 13-bandiga asosan (2017 yil sentabr), Davlat statistika qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida Davlat statistika qo'mitasi faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi. Davlat statistikasi to'g'risidagi qonunning 5-moddasiga muvofiq, Davlat statistikasi organlarining faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari Odob-ahloq kodeksiga, shu jumladan o'ziga yuklangan majburiyatlarni bajarishda olingan ma'lumotlarni oshkor etmaslik uchun maxfiylik qasamyodiga amal qilishlari zarur. Ular majburiyatlari haqida ishga qabul qilish vaqtida xabardor qilinadi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni talab qiluvchi shartnomani imzolashi shart.

0.1.4 Statistik hisobotni taqdim etilishini ta'minlash (zarur toifa)

Davlat statistika qo‘mitasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK) Statistika biznes-jarayonlarning umumiy modeliga (GSBPM) amal qiladi, unda sifatni boshqarish va metama‘lumotlarni boshqarishni ta‘minlovchi statistik biznes-jarayonlar ko‘rsatilgan.

Respondentlar tomonidan ma‘lumotlarning taqdim etilishini ta‘minlash uchun davlat statistika organlari o‘z vakolatlari doirasida davlat statistika hisobotlarini, ma‘muriy hisob ma‘lumotlarini va davlat statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni (ularni tayyorlashning har qanday bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni moliya, bojxona, soliq idoralaridan, banklardan, boshqa bo‘limlar va xizmatlardan, yuridik shaxslar va ularning filial va vakolatxonalaridan, jismoniy shaxslardan, yakka tartibdagi tadbirkorlardan so‘rash va olish hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega.

Bundan tashqari, Davlat statistika qo‘mitasi elektron davlat statistika hisobotlarini qabul qilish vaqtida statistik ma‘lumotlarning ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma‘lumotlarning to‘liqligi va xolisligining ekspert tahlilini o‘tkazadi, xatoliklar aniqlangan hollarda ularni tuzatish va statistika ma‘lumotlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar beradi.

1. Beg‘arazlik

1.1 Professionallik

1.1.1 Statistika ma‘lumotlarning beg‘arazligi (tavsiya qilingan toifa)

Davlat statistikasi to‘g‘risidagi qonunga muvofiq (4-modda) davlat statistikasining asosiy prinsiplari ishonchlilik, xolislik, beg‘arazlikdir. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomda Davlat statistika qo‘mitasining prinsiplari o‘z ichiga beg‘arazlikni olishi zarurligi belgilangan (13-band).

1.1.2 Ma‘lumotlarni tarqatishning manbalari, metodologiyasi va tartibini tanlash (tavsiya qilingan toifa)

Davlat statistikasi to‘g‘risidagi qonunga muvofiq (14-modda) statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalarini va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi.

Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

1.1.3 Statistika ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va ulardan noto‘g‘ri foydalanish borasidagi sharhlar (majburiy toifa)

Davlat statistika qo‘mitasi har bir konkret vaziyatda statistikani noto‘g‘ri talqin qilish va foydalanishni sharhlashi mumkin.

1.2 Ochiq-oydinlik

1.2.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatishning muddatlari va shartlari to‘g‘risidagi axborotlarni ochish (majburiy toifa)

Davlat statistikasi to‘g‘risidagi qonunga muvofiq (4-modda) davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatishning shartlari O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlariga kiritilgan. Ushbu qonunchilik me‘yorlari veb-saytlarga joylashtirilgan va jamoatchilik uchun foydalanishga qulay. Davlat statistikasi to‘g‘risidagi qonun (2002 yil) va 368-sonli Rezolyutsiya Qo‘mitaning veb-saytiga joylashtirilgan (www.stat.uz). Qonun shuningdek Oliy Majlis byulleteniga, qonunlar va normativ hujjatlarning ma‘lumotlar bazasiga (NORMA) va Adliya vazirligining www.Lex.uz ma‘lumotlar bazasiga kiritilgan.

1.2.2 Mamlakat ichida statistik ma‘lumotlardan ular e‘lon qilinishidan oldin foydalanish (majburiy toifa)

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari nashr qilinishidan oldin Hukumat ulardan foydalana olmaydi. Davlat statistika organlari statistik ma‘lumotlarni tarqatishida mustaqildir. Davlat statistika organlarining faoliyatiga davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi (Davlat statistikasi to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasi). Statistik ma‘lumotlar nashr qilinishidan oldin faqat Qo‘mita raisi ulardan foydalanish imkoniyatiga ega.

1.2.3 Statistika idoralari/bo‘linmalarining mahsulotlarida ishlab chiqargan organ ko‘rsatiladi (tavsiya qilingan toifa)

Jamoatchilikka taqdim etilayotgan ma‘lumotlar, shu ma‘lumotlarni ishlab chiqargan organ tomonidan aniq identifikatsiya qilinadi (logotip va havolalar).

1.2.4 Metodologiyaga, ma‘lumot manbalariga va statistik usullarga kiritilgan jiddiy o‘zgartirishlar to‘g‘risida oldindan xabar berish (majburiy toifa)

Yangi metodologiyaga o‘tishdan oldin, metodologiyaga va statistik usullarga qachon jiddiy o‘zgartirishlar kiritilishi to‘g‘risida Davlat statistika qo‘mitasi jamoatchilikni bu haqda oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo‘mitasi o‘z veb-saytida foydalanuvchilar qanday o‘zgartirishlarni kutishi mumkinligini tushuntiruvchi xabar joylashtiradi.

1.3 Etika me‘yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq-odob me‘yorlari (tavsiya qilingan toifa)

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari Odob-ahloq kodeksiga, shu jumladan o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishda olingan ma‘lumotlarni oshkor etmaslik uchun maxfiylik qasamyodiga amal qilishlari zarur. Ular majburiyatlari haqida ishga qabul qilish vaqtida xabardor qilinadi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi maxfiy ma‘lumotlarni oshkor qilmaslikni talab qiluvchi shartnomani imzolashi shart.

4. Amaliy foydalalik

4.3 Qayta ko‘rib chiqish

4.3.1 Qayta ko‘rib chiqish jadvali (majburiy toifa)

368-son rezolyutsiyada ma‘lumotlarning qator toifalarini qayta ko‘rib chiqish muddatlari ko‘rsatilgan, jumladan milliy hisoblar, narxlar va ishlab chiqarish indeksleri, shuningdek savdo to‘g‘risidagi ma‘lumotlar. Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish sikllari oldindan belgilanadi va yildan yilga u yetarli darajada barqaror. Bundan tashqari, Davlat statistika ishlari dasturi har yili joriy ma‘lumotlar va ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning ehtiyojlari sharhini o‘tkazish imkonini beradi. Yillik Davlat statistika ishlari dasturi har yili noyabr oyida ishlab chiqiladi va Hukumatga tasdiqlash uchun kiritiladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlarni aniq belgilash (majburiy toifa)

Nashrlarda dastlabki ma‘lumotlar har bir vaziyatga qarab belgilanadi va tushuntiriladi.

5. Qulaylik

5.1 Ma‘lumotlarning qulayligi

5.1.3 Oldindan e‘lon qilingan jadval (majburiy toifa)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi 5054-son Farmoyishiga muvofiq, mamlakatda iqtisodiy va moliyaviy ma‘lumotlar MTUT tizimi doirasida oldindan e‘lon qilingan nashrlar jadvaliga mos kelishi zarur. Davlat statistika qo‘mitasi turli toifadagi ma‘lumotlarni nashr qilish muddatlarini belgilaydi.

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida taqdim etish (nashr qilish) (majburiy toifa)

Davlat statistika qo‘mitasi jamoatchilik uchun ma‘lumotlarni o‘zining veb-saytida (www.stat.uz) nashr qiladi.

5.3 Foydalanuvchilarga yordam

5.3.1 Aloqa manzillari to‘g‘risida ma‘lumot tarqatish (tavsiya qilingan toifa)

Aloqa manzillari O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining saytida (www.stat.uz) va metama‘lumotlarda mavjud.

5.3.2 Hujjatlar va xizmatlar kataloglarining qulayligi (tavsiya qilingan toifa)

Metodologik hujjatlardan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining saytida (www.stat.uz) ochiq foydalanish imkoni mavjud. Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining onlayn-byulletenida ham mavjud.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejaları – oxirgi takomillashtirishlar

2017 yil sentyabrda Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida yangi nizom qabul qilindi, unda Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funksiyalari va tuzilmasi belgilangan.

Davlat statistika qo'mitasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Statistik biznes-jarayonlarning umumiy modeliga (GSBPM) amal qiladi, unda sifatni boshqarish va metama'lumotlarni boshqarishni ta'minlovchi statistik biznes-jarayonlar ko'rsatilgan.

2018 yilda iste'mol tovarlari va xizmatlari ro'yxati yangilandi va kengaytirildi, narxlar nazorat qilinmoqda. Davlat statistika kuzatuvlari instrumentariysini (hisobot shakllari va anketalar) takomillashtirish. Ishlab chiqaruvchilar narxlari monitoringi uchun tovarlar va korxonalarining nomenklatura ro'yxatini kengaytirish (yillik asosda).

Milliy hisoblarga kelsak, statistika amaliyotiga YehFT 2-tahriri joriy etildi. Turizm yordamchi (satellit) hisobi joriy etildi.

Ishlab chiqarish indeksiga kelsak, 2017 yilda Yevropa ittifoqining (Yevrostat) Iqtisodiy faoliyat turlari klassifikatsiyasiga mos keluvchi yangi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi joriy etildi. Sanoat: zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda yakka tartibdagi va tadbirkorlik faoliyati hajmini hisoblash uchun uslubiy nizom ishlab chiqarish. Davlat statistika kuzatuvlarining instrumentariysini (shakllar va anketalar) takomillashtirish.

Davlat statistika qo'mitasining 2016 yil 20 iyundagi 6-son qarori bilan Kichik biznes sub'ektlarining tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy nizom tasdiqlangan. Ushbu Uslubiy nizom, ko'rib chiqilayotgan davrda kichik biznesning respublika iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini baholash va asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun reprezentativ ma'lumotlar olish maqsadida kichik biznes sub'ektlarining tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish mexanizmini belgilaydi.

Ish haqi to'g'risida ishonchli va sifatli ma'lumotlar olish uchun davriyligi choraklik bo'lgan mehnat to'g'risidagi statistik hisobot takomillashtirildi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejaları – qisqa muddatli

MHT 2008ning yangi qoidalarini joriy etish. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni ro'yxatga olishni takomillashtirish. Milliy hisoblarning asosiy ko'rsatkichlarini diskret choraklar bo'yicha doimiy narxlarda baholashni yaxshilash.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi o'rtasida maxsus dasturiy ta'minot ishlab chiqish yo'li bilan bandlik to'g'risida ma'lumot almashishni yanada takomillashtirish. Uy xo'jaliklarini kuzatish uchun instrumentariyni takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Ishsiz aholi sonini aniqlash bo'yicha metodologiya takomillashtirildi (2018 yil 1 yanvardan joriy etilgan).

Uslubiy nizomlarni qayta ko'rib chiqish i o'zgartirish. Eksport-import xizmatlari to'g'risida statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun tasniflagichni qayta ko'rib chiqish va kengaytirish.

2018 yildan diskret choraklar bo'yicha ishlab chiqarish (xizmatlar, sanoat va qishloq xo'jaligi) indeksleri hisob-kitoblarini joriy etish.

9.2.2 Takomillashtirish rejalari – o'rta muddatli

Moliyaviy hisobni ishlab chiqish va joriy etish.

Zamonaviy texnologiyalar va eng yaxshi jahon tajribasining imkoniyatlarini hisobga olgan holda narxlarni monitoring qilish usullarini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish rejalashtirilmoqda. Xususan, «skanerlash» usuli bilan sinov kuzatuvlarini o'tkazish.

Davlat statistika hisobotlarida mehnat ko'rsatkichlarini kasblar bo'yicha aks ettirish.

Ishlab chiqarish indeksi: MHT 2008 tavsiyalarini hisobga olgan holda «Xizmatlarning, jumladan qishloq joylarda ko'rsatilgan xizmatlarning, statistik hisobini yuritish uchun uslubiy nizom»ni takomillashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejalari – texnik ko'mak/moliyalashtirish zarurati – qisqa muddatli

Moliyalashtirish yillik Davlat statistika ishlari dasturi doirasida amalga oshiriladi. Qisqa muddatli rejalarni amalga oshirishda xalqaro tavsiyalar va eng yaxshi tajribani o'rganish uchun texnik ko'mak zarur.

Texnik ko'mak MHT 2008 ga muvofiq makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashni yaxshilash uchun talab qilinadi.

9.3.2 Takomillashtirish rejalari – texnik ko'mak/moliyalashtirish zarurati – o'rta muddatli

Moliyalashtirish yillik Davlat statistika ishlari dasturi doirasida amalga oshiriladi. O'rta muddatli rejalarni amalga oshirishda xalqaro tavsiyalar va eng yaxshi tajribani o'rganish uchun texnik ko'mak zarur.

Texnik ko'mak moliyaviy hisobni joriy etish uchun talab qilinadi.